XALQ DEPUTATLARI G‘IJDUVON TUMANI KENGASHINING
QARORI

2023 - yil 13 - fevral VI-88-32-2-34-K/23 G‘ijduvon tuman hokimligi

G‘ijduvon tumani mahalliy byudjetining yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘lari hamda tuman mahalliy byudjetining daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 126-moddasiga asosan tuman hokimligining G‘ijduvon tumani mahalliy byudjetining yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘lari hamda tuman mahalliy byudjetining daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflarini ko‘rib chiqib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILDI:

1. Tuman hokimligining hisobotiga asosan G‘ijduvon tumani mahalliy byudjetining yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘lari hamda tuman mahalliy byudjetining daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi mablag‘larini 1-ilovaga muvofiq yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

2. Tuman hokimligi moliya bo‘limi (G‘.Tilloyev)ga:

O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi talablari asosida tuman mahalliy byudjetining tasdiqlangan parametrlariga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

3. Mazkur qaror ijrosining nazorati xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

4. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Xalq deputatlari G‘ijduvon tuman Kengashi raisi **Sh.Ashurov**

Xalq deputatlari G‘ijduvon tuman
Kengashining
2023 yil 13 fevraldagi
VI-88-32-2-34-K/23-son qaroriga
1-ilova

G‘ijduvon tumani mahalliy byudjetining yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘lari hamda tuman mahalliy byudjetining daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi manbalari hisobidan yo‘naltiriladigan mablag‘lar

ming.so‘mda

№	Tadbirlar nomi	Ajratiladigan mablag‘lar miqdori, ming so‘m hisobida	Mablag‘ ajratilgan tashkilot nomi	Ajratiladigan mablag‘ manba’si
1.	G‘ijduvon tumani hokimligi apparati, ijtimoiy ko‘nikma markazi, xalq deputatlari tuman Kengashi xodimlarining 2023-yil oylik maoshi miqdoridagi ustama to‘lovlari uchun	1239957,0	Tuman hokimligi	Tuman mahalliy byudjetining yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘lari hamda tuman mahalliy byudjetining daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan
2.	G‘ijduvon tumani hokimligi apparati, ijtimoiy ko‘nikma markazi, xalq deputatlari tuman Kengash xodimlarining 2023-yil ovqat pullari uchun	731400,0	Tuman hokimligi	Tuman mahalliy byudjetining yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘lari hamda tuman mahalliy byudjetining daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan
3.	Tuman hokimligi apparati xodimlarini lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi va imlosi, davlat tilida ish yuritish asoslari bo‘yicha o‘kitish va malakasini oshirish xarajatlari uchun	18886,0	Tuman hokimligi	Tuman mahalliy byudjetining yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘lari hamda tuman mahalliy byudjetining daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan
4.	O‘zbek davlat ilmiy-loyihalash instituti “Buxvilerloyixa” Buxoro viloyat bo‘linmasi bilan tumandagi yangidan aylanma yo‘l chiqarish uchun loyixa smeta hujjatlarini tayyorlash xarajatlari uchun	10987,0	Tuman hokimligi	Tuman mahalliy byudjetining yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘lari hamda tuman mahalliy byudjetining daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan
5.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-fevraldagi PQ-4185-sonli qaroriga asosan sho‘‘ba xodimlarining transport xarajatlari uchun kompensatsiya xarajatlari uchun	5400,0	Tuman hokimligi	Tuman mahalliy byudjetining yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘lari hamda tuman mahalliy byudjetining daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan
6.	“UNIKON-SOFT” MChJ bilan “E-HUQUQSHUNOS” elektron tizimidan foydalanish xarajatlari uchun	2400,0	Tuman hokimligi	Tuman mahalliy byudjetining yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘lari hamda tuman mahalliy byudjetining daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan
	Jami	**2009030,0**		